

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.S.Shodiyeva	
Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini	424
M.G'.Ismoilov	
O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari.....	429
N.X.Raxmankulova	
O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati	433
M.Saminjonov	
Rasmiy-siyosiy qasamlar	439
A.A.Hakimov	
1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi	444
Sh.T.Abbosova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati	448
A.A.Parmonov	
Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'rni va ahamiyati.....	451
S.M.Abdullayev	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	456
S.M.Ro'zimurodov	
Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'rni.....	460
M.A.Мирзарахимов	
Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития.....	464
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili	467
J.Xamroqulov	
Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish.....	471
N.O.Yunusaliyeva	
O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ..	475
N.I.Suleymanova	
Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati	481
Y.V.Lutfullina	
Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahamiyati.....	486
J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob	
Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish	490
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida	497
S.A.Sharipova	
Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida.....	500
K.I.Марайимова	
Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей.....	506
B.B.Djalalov, K.P.Uzakov	
Ta'limning uzluksizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida.....	512
M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov	
Ayrim geteroatomli aldehydlarni $Inbr_3/Et_3n/Et_2o$ katalitik sistemasida alkinillash jarayoni.....	519
A.Sh.Raximov	
Ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi.....	527

TA'LIM JARAYONIDA TARBIYA USULLARINI TO'G'RI TANLASHNING AHAMIYATI

ВАЖНОСТЬ ПРАВИЛЬНОГО ВЫБОРА МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕTHE IMPORTANCE OF THE CORRECT CHOICE OF METHODS OF UPBRINGING IN
THE EDUCATIONAL PROCESSLutfullina Yuliya Vyacheslavovna¹¹Qo'qon davlat pedagogika instituti, boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi**Annotatsiya**

Pedagogikada o'qitish jarayonidagi zamonaviy ta'lim mazmuni umuminsoniy va milliy tajribalar uyg'unligini taqozo etadi. Ta'limiy, tarviyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni o'quvchilarda o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlarga oid omillar tahlil qilinadi. Pedagogik takt va texnika o'quv sharoitlarida juda xilma-xil masalalarni aniq, tezkor va samarali hal qilish paytida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishning muhim vositasi sifatida muhim rol o'ynashi maqolada atroflicha yoritilgan.

Аннотация

Значение современного обучения в процессе обучения педагогики требует соответствие общечеловеческой и национальной практики. Образовательные, воспитательные и развивающие цели внедряются только после анализа их индивидуальных черт. В статье всесторонне освещено как четко, оперативно и эффективно решит различные задачи со учениками в техническо-учебных средах и условиях педагогического такта.

Abstract

The importance of modern teaching in the process of teaching pedagogy requires the conformity of universal and national practice. Educational, educational and developmental objectives are implemented only after the analysis of their individual traits. The article fully describes how to solve the various tasks with the students in the technical and educational environments and the conditions of the pedagogical tactic in a clear, prompt and effective manner.

Kalit so'zlar: *umuminsoniy, ma'naviy qadriyatlar; mehnatsevarlik, omilkorlik, mutlaqo toza nutq, kasb tanlash ishlab chiqarish ta'limi, halollik, kamtarlik, individual psixologik xususiyat, ijodiy yondashuv, pedagogik takt, shaxsiy ma'suliyat.*

Ключевые слова: *общечеловеческие и духовные ценности, трудолюбие, фактор, совершенно чистая речь, выбор профессии, производственное образование, честность, скромность, индивидуально-психологическое свойство, творческий подход, педагогический такт, личная ответственность.*

Key words: *universal human and spiritual values, Anotol France, hard work, a factor, quite clear speech, choice of profession, industrial education, honesty, modesty, individual psychological quality, creativity, pedagogical tact, personal responsibility.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida ta'kidlaganidek, "Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning xal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur"[1, 13].

Bugungi rivojlangan ta'lim tizimi jarayonida o'quvchilarda fikr uyg'otish pedagog-o'qituvchilardan katta kuch va mahoratni talab etadi.

Inson faoliyatining eng asosiy birlamchi turi mehnat, atrof-muhitni o'zlashtirish, bunyod etish orqali ham ijtimoiy, ham shaxsiy ehtiyojlarini qondiradi. Shuning uchun ham mehnatga murakkab ijtimoiy hodisalar sifatida qaraladi va talqin qilinadi.

Ma'lumki, har qanday ta'lim muassasalari ishining maqsadlari bir-birini taqozo etuvchi maqsadlarni va uzviy aloqador: ta'limiy, tarviyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zda tutadi.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uning izchilligi va uzluksizligini ta'minlashga erishish masalalari yetuk mutafakkirlar hamda ilg'or pedagoglarning diqqat e'tiborlarini jalb etib kelgan. Yosh avlod ta'lim tarbiyasini tashkil etishning ushbu jihatlari o'z davrida Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Mirzo Ulug'bek, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Saidrasul Aziziy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Sadridin Ayniy, Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabilar ta'lim texnologiyalarini o'zgartirishga katta hissa qo'shdilar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish borasida I.Ibragimov, J.Yo'ldoshev, U.Yo'ldoshev, U.Nishonaliyev, S.Nishonova, M.Ochilov, N.Saidahmedov, C.Usmonov, J.Tolipova, O'.Tolipov, M.X.Usmonovboyeva, Sh.Sh.Abdullayeva, O.Abdukuddusov, B.Adizov, Sh.Baratov, X.Aliqulov, F.Babashev va boshqalar samarali tadqiqotlar olib bormoqdalar.

AMALIY NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

To'g'ri fikrlash yaratuvchilik omilidir. Shuning uchun ham "... pedagogikada o'qitish jarayoni ikki tomonlama: o'quvchi tomonidan bajariladigan o'quv va o'qituvchining o'rgatuvchanlik faoliyati yig'indisidan iborat. Bu qoidani inkor qilmay, zamonaviy ta'lim mazmuni umuminsoniy va milliy tajribalar uyg'unligini taqozo etadi"[2,266].

Bugungi kunda har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining roli beqiyosdir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, bolaning har jihatdan shakllantirish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Fransuz adibi Anatol Frans: "Eng yaxshi axloqiy va estetik dori - mehnat", [2, 266] - degan fikrni o'z qarashlarida ilgari surgan.

Bolaning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, insoniy munosabatlar borasidagi o'ziga xosliklar, axloq tamoyillari, go'zallik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu – tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning asosi, poydevoridir. Shuning uchun mafkurasiz insho, mafkurasiz guruh, millat, xalq, jamiyat bo'lishi mumkin emas[3, 27]."

Yoshlar mehnatining mazmuni davlat oldida, ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy vazifalar, viloyat va tumanlar, ma'muriy hududlardagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, o'quv yurtlarining ichki imkoniyatlari va talablari asosida belgilanadi. Avvalo, o'quv-yoshlar ta'lim olish jarayonida mehnat haqida dastlabki bilim va tasavvurga ega bo'ladi. O'qish ham mehnat ekanligi tushunib yetadilar. Bu esa ijtimoiy muhitda har qachongidan ham dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Mehnat jamoalari inson umrining asosiy qismi o'tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma'naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, omilkorlik, adolat tushunchasi, mehr-oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydigan o'zga xos maskan bo'lib hisoblanadi. Kasb tanlash jiddiy va mas'uliyatli ishdir[4, 173].

Kasb tashlashga yo'naltirishda bolalar ijodini o'rganishda maktab o'quvchilarining o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga oid omillar tahlil qilinib, muayyan xulosalarga kelinadi. Bunda o'quvchilarning turli yozma daftarlari, tutgan kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va hikoyalari, hayotiy rejaları, insholari, turli xil yozma hisobotlari ularning dunyoqarashi va ma'naviyatlarini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

"...Narsalarni tabiiy nus'halari orqali hayolan tasavvur etish qiyinligidan, ular uni tasavvur etmay, o'sha narsa haqiqatan ularga qanday namoyon bo'lsa, shunday tasavvur etadilar va idrok qiladilar. Agarda hayolan tasavvur etilayotgan narsaning mohiyati uning haqiqiy mavjudligi bo'yicha tushunilsa ham bu ish juda qiyinchilik bilan ro'y beradi, bunday fikr, bilish, idrok etish usuli faqatgina nazariy fanlarni bilgan odamlargagina taalluqli emas.

Inson, o'zi va ruhiyati orasidagi hamda o'zi va boshqa birov orasidagi mavjud narsani tadqiq etishda bor imkoniyatni ishlatib muntazam ravishda mashq qilib turishi kerak.

Buni u haqiqat vositalarini egallashda sabot bilan yo o'qitish va murabbiylik usullari yoki bahs va himoya usullari bilan amalga oshirishi zarur. Ushbu san'at tufayli erishilgan qobiliyat "mantiqiy qobiliyat" deb ataladi"[5, 35].

Mazkur uslub orqali o'quvchilar orasidagi iste'dodli, iqtidorli yoshlarni aniqlab, ular bilan alohida ish olib boriladi. Bun jarayonda asosiy vazifa va mas'uliyat o'qituvchi-pedagog zimmasiga tushadi. Har bir o'qituvchining o'z ish faoliyatiga ijodiy yondashuvi jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, yangiliklarni tezda ilg'ay bilishi, fan yangiliklarini o'rganib, o'quv jarayonida qo'llashi bilan ifodalanadi.

O'quv jarayonini tashkil etish va dars berish uslubini tanlaganda mutaxassis tayyorlash bilan birga, yoshlarga yetuklik, axloqan poklik, vatanparvarlik, baynalminalchilik ruhini ham singdirish zarurligini yoddan chiqarmaslik kerak. O'qituvchining shaxsi, psixologik sifatlari, nazariy va metodik jihatdan tayyorgarlik darajasi dars berish metodiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Dars berish metodlarining samaradorligi haqida fikr yuritilar ekan, o'qituvchining shaxsiy sifatlaridan uning ilmiy-uslubiy tayyorgarlii darajasini ajratib bo'lmaydi[6, 35].

O'qituvchi-pedagog tarbiya va ta'lim uslublarini mukammal egallab olishi, ta'limning xilma-xil va eng samarali uslublarini ko'llanishi, buyum haqida qiziqarli so'zlabgina qolmasdan, balki o'z mahoratini ko'rsata bilishi ham lozim. Muntazam ravishda o'quvchilarning o'zlashtirishini va ularning o'quv mashg'ulotlariga munosabatini, umumiy kamoloti, xulk-atvor qoidalarini bajarishlarini kuzatish; o'quvchilarda ijtimoiy hodisalarga qiziqish uyg'otish, burch va mas'uliyat, haqqoniylik, kamtarlik hislatlari, irodaviy sifatlarni tarbiyalash; o'quvchilarning moddiy turmush sharoitlarini o'rganish pedagog uchun juda muhim. Pedagog bu kuzatishlarni yozib borishi o'quvchilarning yaxshi va yomon hatti-harakatlarini ularni keltirib chiqaradi deb tahmin qilinadigan sabablarni qayd qilib qo'yishi, shuningdek har bir o'quvchiga ta'lim va tarbiya berishni yaxshilash choralari ko'rishi zarur. Har bir o'quvchiga pedagogik tavsifnoma yozib berish o'qituvchiga yuz bergan o'zgarishlarni, o'quvchilar ta'lim va tarbiyasidagi siljishlarni tahlil qilish, ulardagi ijobiy sifatlarni o'stirishga ko'maklashish imkonini beradi.

O'qituvchilar o'quvchilarga ma'lum bir kasbnigina (masalan, injener, muxandis, duradgor, chilangar va hokazo) o'rgatib qolmaydi. Balki har tomonlama axloqiy, ma'naviy, estetik va o'z o'rnida zamonaviy tarbiya ham beradi. Pedagogning shaxsiy namunasi, uning umumiy madaniyatlilik darajasi o'quvchilarga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Pedagogning o'zi jamiyatimizning madaniyatli, bilimli, ilg'or kishisi bo'lgan taqdiridagina ta'lim-tarbiya vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishi mumkin. Pedagog o'z kasbiga doir bilimlaridan tashqari yoshlarga qaysi kasb o'rgatilishidan qat'iy nazar, ularni hozir qiziqtirayotgan fan va texnikaning boshqa sohalariga oid ma'lumotlarni ham o'zlashtirib olishi kerak.

Pedagog adabiyot, san'at asarlari bilan tanish bo'lishi, jismoniy tarbiya va sport masalalarini tushunishi lozim. Pedagog madaniyatining ba'zi sifatlari: tashqi qiyofasi, nutq madaniyati, pedagogik takt va texnikasi yaxshi odatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

“Ukrain pedagogi A.S.Makarenkoni yozishicha, pedagog estetik jihatdan ifodali bo'lishi kerak. Pedagog batartiblik, saranjom va sarishtalikda namuna bo'lishi juda muhim. Yaxshi pedagog hunar o'rgatish mashg'ulotlariga ham, o'zining tashqi ko'rinishiga ham qattiq talabchan bo'ladi. Darsda o'nlab o'quvchilarning o'ziga qarab turishini u hech qachon unutmaydi. Pedagogning nutqi ishonarli, ifodali va tushunarli bo'lishi kerak. Balandparvoz, dabdabali nutq odatda kishilarda ishonch hosil qilmaydi. Undan ham yomoni o'quvchilar bunday nutqni tushunmaydilar. Quruq va ifodasiz tushuntirishlar ham yaxshi nuqson emas. So'zlash ohangi nutq madaniyatining muhim omilidir. Sekin, ravon so'zlash ohangi har qanday fikrni isbot qilishda yordam beradi, ilbatta, serjahllik, asabiylik esa kishida salbiy ta'sirlarni keltirib chiqaradi. Darsda juda qattiq yoki haddan tashkari past ovozda gapirish yaramaydi”[7, 19].

Nosiriddin Tusiy o'zining “O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida” asarida shunday deydi: “O'qituvchi munozaralarni olib borishda isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim. O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandalik, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin”[8, 16].

Dars jarayonida har bir pedagog o'quvchini tinglay olish, u berayotgan javobini bo'lmaslik, o'z fikrini tugallay olish uning uchun juda muhim sanaladi. Pedagogik takt va texnika o'quv sharoitlarida juda xilma-xil masalalarni aniq, tezkor va samarali hal qilish paytida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishning muhim vositasidir. Pedagogik takt va texnika pedagog mahoratining belgilaridan biridir, deyish mumkin. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonning sifatigina emas, balki pedagogning o'quvchilar bilan uzaro munosabatlari, obro'si ham pedagogik takt va texnikaga bog'liqligi barchamizga sir emas. Pedagogik takt va texnika, birinchidan, o'quvchilar shaxsiga hurmat va ularga nisbatan talabchanlik, ikkinchidan, o'quvchilarga nisbatan sezgirlik va mehribonlik, uchinchidan, o'quvchilarga ishonch va ayni vaqtda faoliyatini muntazam ravishda nazorat qilib borishdir.

Odatda qobiliyat insonga shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tugʻma ravishda, tayyor holda berilmaydi, balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy-psixologik tadqiqotlarda qobiliyatning tugʻmaligi nazariyasini inkor etib, uning nomaʼlum tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi tugʻrisidagi tasavvurlarga qattiq zarba beriladi. Lekin odatda har bir odam oʻzining faqat ehtiyojlari va qiziqishlari jihatidan bir-biridan farq qilmay, balki qobiliyatlari, isteʼdodlari jihatdan ham farq qiladi. Oʻqituvchi yoki ota-ona bolalarni kuzatar ekan, bu bola koʻproq mana bu sohaga qobiliyatli yoki u bu kasbga qobiliyati sustroq deb mulohaza qiladilar[2, 253].

XULOSA

Insonning mehnat faoliyatida vaqtida uning turli isteʼdod va qobiliyatlari ham ifodalanadiki, bu tafovut fan, texnika, sanʼat, ijtimoiy-siyosiy va umuman barcha sohalarda namoyon boʻladi. Baʼzi kishilarning mehnati, ayniqsa, samarali, tezkor va muvaffaqiyatli, baʼzilarning aksincha, unumsiz va sifatsiz boʻlib, ijodiy, ilmiy namunalarini koʻrsata olmaydi. Bu esa har bir oʻquvchining alohida dunyosi va xususiyatini alohida nobatga olishni anglatadi.

Yosh avlod tarbiyasida har bir pedagog-oʻqituvchi zimmasiga bugungi kun talabidan kelib chiqib, toʻlaqonli saviyada oʻquv va dars jarayonini tashkil etish vazifasini yuklaydi.

Eskicha qarash, mazmunan sayoz, aniqlikdan chetlashgan, oʻz ahamiyati va ilmiylik darajasi susaygan maʼlumotlar bilan ishlash va uni oʻquvchilarga yetkazishga chek qoʻyiladigan vaqt allaqachon kelganini biz pedagoglar tushunib yetishimiz zarur. Shaxsiy masʼuliyat, talabchanlik, xorijiy tillar egallash, doimiy va yuqori darajada boʻlishi lozim. Shundagina yurt kelajagi, millat poydevori boʻlgan yoshlar ishonchli qoʻllarda ekanligi belgilanadi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga barpo etamiz. - T.: "Oʻzbekiston", 2016. - 14-bet.
2. Nazrulla Boymurodov. Amaliy psixologiya. – T.: "Yangi asr avlodi", 2008. - 266-bet.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi. Moliya instituti. Umumiy pedagogika. "Iqtisod-moliya", 2015, 27-bet.
4. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T., "Fan va texnologiya", 2008. - 173-bet.
5. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. – T.: "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2004. - 121-bet.
6. Tojiboyeva D., Yoʻldoshev A. Maxsus fanlarni oʻqitish metodikasi. – T.: "Aloqachi", 2009. - 35-bet.
7. Karimov I. Mehnat taʼlimi oʻqitish texnologiyasi. Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. - T.: (Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilingan), 2013. - 19-bet.
8. Haydarov F., Xalilova N. Psixologiya fanlarini oʻqitish metodikasi. – T.: "Aloqachi", 2007. - 16-bet.
9. Лутфуллина Ю. В. СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОСПИТАНИЯ УЧЕНИКОВ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – T. 40. – С. 230-232.
10. Lutfullina Y. V. Modernization of the Content of Doctorial and Lexical Work in Russian Lessons, Content and Types of Vocabulary Work //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 5. – С. 86-89.
11. Raxmankulova N., Mirzanazarova S. DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – T. 2. – №. 1.
12. Rakhmonkulova N. K. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades //International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
13. Rahmankulova N. X. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age //World of Science: Journal on Modern Research Methodologies. – 2023. – T. 2. – №. 3. – С. 41-46.
14. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, 2(2), 97-100.
15. НН, М., АА, N., NX, R., GB, U., & UA, M. (2022). КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ОБЛАСТИ ИКТ. *Международный журнал специального образования детей раннего возраста*, 14(7).
16. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
17. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).
18. Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.
19. Khasanovna, R. N. METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. 51 *ТЕХНОЛОГИИ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ (SEL) В ПРОФИЛАКТИКЕ БУЛЛИНГА УЧАЩИХСЯ БЫЛИНА ВЕРА ВЛАДИМИРОВНА*, 52, 15.